

**BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI  
AMALGA OSHIRISH NEGIZIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Mamajonov Akromjon Turgunovich**

*Andijon qishloq xojaligi Va agro texnalogiyalar institute "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedra Mudiri.i.f.d dodsenti*

**Komilov Elyorbek Mo'sajon o'g'li**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agro texnalogiyalar institute Sug'urta ishi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mualif tomonidan buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish negizida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish borasida fikr yuritgan.

**Kalit so'zlar:** konsepsiya, buxgalteriya hisobi, moliyaviy natija, daromad, harajat, foyda, zarar.

XXI asrning boshlanishi O'zbekiston Respublikasi hisob tizimining qayta qurish davriga to'g'ri keladi. Sekin-asta buxgalteriya hisobi tzizmida xalqaro sandartlar asosida huquqiy hujjatlar yaratila boshlandi.

Bunday huquqiy va me'yoriy hujjatlarning yaratilishi hamda ishlab chiqilishi respublikamizda hisob siyosatini olib boorish uchun asos bo'ladi. Respublikamizda hisob siyosatini olib borishdan asosiy maqsad jahon amalyoti va bozor munosabatlari talablariga mos keluvchi hamda xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini yaratishdir.

Yaratilgan konsepsiya davlatda buxgalteriya hisobi tzimini qayta qurishuchun asos hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotining hozirgi holatida ushbu konsepsiyasini yaratish quydagi ishlar bajarish bilan bevosita bog'liqdir.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar iqtisodiyotimizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurutuvchi su'ektlarda amalyotdagi hisobi huquqiy va me'yoriy xujjalariiga bir xil kuchda amal qilishni ta'minlash

Amaldagi huquqiy va me'yoriy hujjatlarni hududiy, mahalliy sharoitlar, an'anaviy va tarixiy tajriba hamda zamonaviy usul va xalqaro satandartlar asosida sekin asta takommilashtirib borish.

Buxgalteriya hisobi xizmati tannarxini pasaytirish bilan uning ma'lumotlari sifatini yaxshilash asosida ichki va tashqi foydalanuvchilarning manfaatlarini sedan chiqarmagan holda hisob ishlarini tshkil qilish.

Mulkdor yoki korxona raxbari talabalari va davlatda umumqabul qilingan tartib-qoidalar asosida korxona hususiyatlariga mos keluvchi hisobining usul va uslubiyatini yaratish.

Korxona hisob siyosatini yuritish va undan kelib chiqqan holda usularni qo'llashda erkinlik berish.

Me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqishda fanning rivojlanish tarixi, an'anaviy, zamonaviy xalqaro usullari va uslubiyatidan foydalanilgan holda uning mazmuni hamda mantiqiga alohida e'tibor berish.

Buxgalteriya hisobi hamda uning turlariga taluqli bo'lgan xo'jalik jarayonlarini yoritish va asoslashda nazariy, ilmiy asoslangan so'z va atamalardan foydalanish, ya'ni o'zboshimchalik bilan asossiz so'z hamda atamalarni qo'llashga chek qo'yish

Fan-texnika yutuqlari, xorijiy tajribalar, tarixiy, milliy va hududiy urf-odatlar asosida mutahassislarni taylorlashga alohida e'tibor qaratish.

Keltirilgan ishlarni bajarish bilan buxgalteriya hisobining uzoq muddatga mo'ljallangan konsepsiyasini yaratish hamda bozor munosabatlari sharoitida raqobatdosh tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratiladi.

Keyingi paytlarda me'yoriy hujjatlar va mutaxassislik adabiyotlarda, uslubiy qo'llanmalarda shoshma-shosharlik, mantiqsiz, asossiz atama va so'zlardan foydalanish, tarixiy va an'anaviy tajribalardan voz kechish hamda mutaxasislarning ko'rimsizligi tufayli buxgalteriya hisobi tizimida salbiy holatlar hamda uchrab turibdi.

1. Друри К. Управленческий и производственный учет: пер.с англ. -6-е изд.- М.: ЮНИТИ-ДАНА,2007.-1423 с

Jahon tajribasi va tarixi shuni ko'rsatadiki, kishilik jamiyati bilan bir vaqtida paydo bo'lgan hisob, jamiyat taraqqiyotiga mos holatda takomillashib, rivojlanib boraveradi. Uning amal qilish tartibi, usuli va uslubiyati insonlar tomonidan ishlab chiqiladi hamda ular insonlar uchun xizmat qiladi. Uzoq tarixiga ega bo'lgan buxgalteriya hisobi insoniyat tafakkurigabog'liq holda takkomillashib, rivojlanib bugungi holat va ko'rinishiga keldi. Bundan keyin ham jamiyat taraqqiyotiga mos holda rivojlanib borishini inkor qilib bo'lmaydi.

Ushbu mavzu bo'yicha ko'rيلayotgan, ya'ni ishlab chiqarish hisobini tashkiliy tamoyil va uslubiy masalasi ham zamon talablari, jamiyat tarqaqqiyoti, ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotga bo'lgan talab va xalqaro tajriba asosida yuzaga kelgan muammolardan biridir.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobinitakommilashtirish qonsepsiysi har hir tarmoq bo'yicha yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki buxgalteriya hisobi tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari asosida tashkil qilinadi. Albatta, bunday konsepsiylar umum davlat miqyosida qabul qilingan buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirish konsepsiysi aosida amalga oshirilishi kerak.

Bugungi kunda donni saqlash va qayta ishlash tarmog'ida buxgalteriya hisobi va hisobotini takommilashtirish konsepsiyasini yaratish quydagi dolzarb ishlarini amalgaloshirish bilan bevosita bog'liqdir:

1. O'zbekiston Respublikasi hisob tizimida donni saqlash va qayta ishlash tarmog'ining barcha o'ziga xos texnologik xususiyatlarini o'zini o'zida

mujassam etgan hamda zamon talablariga mos keluvchi buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini yaratish.

2. Ummumdavlat miqyosida qabul qilingan buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha meyoriy, huquqiy hujjatlar asosida tarmoq xususiyatlariga mos meyoriy hujjatlar toplamini ishlab chiqarish.

3. O'zbekiston Respublikasi hisob tizimida qabul qilingan boshlang'ich va yig'ma hujjatlar tarkibiga mos holda don va don mahsulotlarining harakatini ro'yxatga oluvchi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishda zarur bo'lgan boshlang'ich va yig'ma hujjatlar al'bomini yaratish.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1999 yil 5 fevraldag'i 54-sonli qarori bilan qayta tasdiqlangan "mahsulot (ish,hzimat) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarining shakllanishi tartibi to'g'risida"gi nizom hamda unga kiritilgan o'zgarishlar asosida tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tarmoq ichida xarajatlar tartibi to'g'risidagi nizomni yaratish hamda kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda uni qayta ko'rib turish.

5. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobga olishining o'ziga xos usul hamda uslubliyatlarini belgilovchi tarmoq ichki standartini yaratish. Bunga asosiy vositalar va nmoddiy aktivlarni baholash, guruhlash, amortizatsiya hisoblash hamda moddiy zaxiralarni baholash, guruhlash, hisobga olish va hisobdan chiqarishning o'ziga hos usullari kiradi. Shuningdek, keltirilgan takliflar asosida ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish.

Keltirilgan vazifalar asosida tarmoqning hisob siyosati shakllanadi. Albatta, tarmoq hisob siyosatida tashkil qilingan buxgalteriya hisobining tashkiliy tarkibi ham, ya'ni tarmoqda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari moliyaviy, boshqaruv va ishlab chiqarish hisoblari asosida olinishi ko'rsatib o'tilishi kerak. Shuningdek, tarmoq hisob siyosati hisob turlari bo'yicha ularning ob'ektlari aniq ko'rsatilishi shart. Masalan, moliyaviy hisob ob'ektiga korxona aktivlari va passivlari hisobi hamda moliyaviy hisobot tuzish, ishlab chiqarish hisobi ob'ektiga barcha ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ishlab chiqarish tannarxi, boshqaruv hisobi ob'ektiga barcha moliyaviy natijalar hisobi, mahsulot tannarxini kal'kulyatsiya qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda bajarilishini ta'minlash.

2Jo'rayev H.,Abduvaxidov F.,Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet

Tarmoq buxgalteriya hisobini rivojlantirish onsepsiysi asosida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish quydagi vazifalarni amalga oshirish bilan ifodalanadi:

2Jo'rayev H.,Abduvaxidov F.,Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet

Respublikamiz olimlari tomonidan chop etilayotgan buxgalteriya hisobini tshkil qilish va takomillshtirishga bag'ishlangan darslik, o'quv qo'llnma, risola va ilmiy izlanish natijalarida moliyaviy natijalar hisobining nazariy, uslubiy va amaliy tomonlarini ifodalovchi mavzularni yoritib borish.

Tarmoq hisob siyosatida moliyaviy natijalar hisobing tarmoqdagi vazifa va funlsiyalarini ko'rsatish:

Jo'rayev H.,Abduvaxidov F.,Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet

Ta'kidlab o'tilganideg, tarmoq korxonalarda moliyaviy natijalar hisobi ob'ektlarini aniq belgilab olish va hisob siyosatiga ko'rsatib o'tish.

Moliyaviy natijalarni xisobga olishda tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan schotlar va ularning bog'lanishini ifodalovchi tizimini yaratish va bunday tartibini korxona siyosatida ko'rsatib o'tish:

Moliyaviy natijalarni guruhlash, hisobga olish va taqsimlashda tarmoq hususiyatlariga mos keluvchi ussularni amalyotga joriy qilish:

Tarmoq miqyosida moliyaviy natijalarining asosiy manbasi bo'lgan ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlarini moddalari bo'yicha guruhlash va ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishda undan foydalanishni ta'minlash:

Moliyaviy natijalar hisobida foydalaniladigan boshlang'ich va yig'ma hujjatlarining yangi avlodi va albo'mini yaratish.

### **FODALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Друри К. Управленческий и производственный учет: пер.с англ. -6-е изд.-М.: ЮНИТИ-ДАНА,2007.-1423 с

2. Jo'rayev H.,Abduvaxidov F.,Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet

3. Jo'rayev h., Xolbekov P., Abduvaxidov F., Ilhomov I. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy taxlil va audit. Darslik.-t.:2007 y

4. Ibragimov A., Ochilov I., Quziyev I., Rizayev H., Moliyaviy va Boshqaruv hisobi. O'quv qollanma. -T.: "Iqtisodiy moliya", 2008. -451 b.

5. Kompleks iqtisodiy tahlil: Darslik / T.SH.Shog'iyosov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazozligi, Toshkent Moliya institute. 220 bet.